

**O’TKIR HOSHIMOVNING “DUNYONING ISHLARI” ASARIDA ONA OBRAZI***Normurodova Sohiba**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti**Filologiya fakulteti 2- boshqich talabasi***ANOTATSIYA**

Mazkur maqolada adabiyotimiz yirik namoyondalaridan biri O’tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asarida ona obrazini tahlil qilish bilan bir qatorda ona va farzand munosabatlari, onalarimiz oldidagi farzandlik burchlarimiz baholashga qaratilgan. Maqolada asosiy qaratilgan fikr bu yozuvchi O’tkir Hoshimov tomonidan gavdalantirilgan o’zbekimning matonatli, o’zbekning zahmatkash ayollarini taqdirini yoritib berish bilan birgalikda, ne sinovlar kelsada farzandi uchun yuksak mehr - muhabbati yoritilganni ko’rishimiz mumkin.

**Kalit so’zlar:** Ona, alla, matonat, qissa, qadriyatlar.

Milliy qadriyatlarimiz ,an’analarimiz bu bizning kimligimizni yorituvchi omillardan biri xususan inson qadr - qimmatini anglagan holda ona siymosi doim yuksaklarga ko’tariladi chunki biz shunday xalqimizki, buyuk, buyuk olimlarni ham onalar tarbiyalagan degan g’oya bizni hayotimizda shior bo’lib keladi desak ham bo’ladi. Inson doim yetakchi, sirdosh, do’st, ustozga hayoti davomida ehtiyoj sezadi. Umuman olganda bularni o’zida jam qila olgan yagona inson bu -ONA.

1982- yillarda yozilgan O’tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasini yuqoridagi fikrlarning yorqin dalili deb keltirsak mubolag’a bo’lmaydi. Asar janriga ko’ra qissa hisoblanib ko’plab qisqa hikoyalarni o’z ichiga olgan doston desak ham yanglish bo’lmaydi. O’zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Said Ahmadning fikriga ko’ra “Ayniqsa, “Dunyoning ishlari” asarini qissa emas, doston deb atashni istardim . U qo’shiqday o’qiladi. Uni o’qib turib o’z onalarimizni o’ylab ketamiz. Shu mushfiq , shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo’lmas qarzlarimizning aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha , bir savol ko’z oldimizda ko’ndalang turib oladi” deya ta’riflaydi . Ushbu asarda nafaqat yozuvchining “onasi” balki bashariyat onalari ham nazarda tutiladi. “Faqat ba’zilarining ismi o’zgardi, xolos” muallif. Asarda o’tmishni emas, balki o’tmish orqali hozirgi kun jamiyat muommolarini ham ochib bera olgan asar hisoblanadi.

Xususan asarning “Alla” qissasida qilinadigan hikoyada muallif “Ona- tabiatning eng buyuk ixtirosi” deya ta’kidlaydi. “..... Dunyoning bu chekkasida turib ona aytgan allaga dunyoning narigi chekkasidagi go’dak bemalol , oram oladi”. Allaning sehrlil kuchga ega ekanligini isbotlab bergan. Qo’shni xalqlarimizni urf-

odatini, ona tilini tushunmasligimiz mumkin, lekin alla ohangini tushunamiz. Asar qahramoni ham qirg'iz xalqi allasini eshitib to'gridan - to'g'ri ko'ngliga sokinlik kimganni aytadi. Asarni badiiy jihatdan emas balki, hayotiy tomondan olib qarasaq, qahramonimiz turli yurtlarda, turli tillarda aytilgan allaning mohiyatini anglab yetishga erishadi. Xalqimizda ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan "Otang davlating, Onang jannating" maqolini ko'radigan bo'lsak aslini olganda, onalarmiz aytgan alla - Jannat, onalarimizni quchog'I - Jannat, duolari - Jannat. Biz ana shunday jannatiy insonlardan tarbiya olib ulg'ayamiz. Allaning xususiyati tibbiyotlarda ham isbotlangan. Masalan, Abu Ali Ibn Sino o'zining mashhur asarlaridan biri bo'lgan "Tib qonunlari" kitobida bola tarbiyasida allaning ahamiyati haqida "Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak: Biri bolani sekin sekin tebratish, ikkinchisi uni uxlatish uchun odat bo'lib qolgan musiqa va allalashdir". Bu g'oyalar bejiz yozilmagan inson ongli ravishda qulog'ida qolgan ohang sehridan taskin topadi, xoh u go'dak bo'lsin, xoh yoshi katta inson.

Yana bir hikoyaga to'xtaladigan bo'lsak, "Faqat..... har gal ularni o'qiganda bir narsani o'ylayman: mana shu so'zlarni yurak yurakdan iztirobi bilan aytgan farzand onasi hayot ekanligida qanchalik ko'nglini ololdi ekan" 'Oq marmar, qora marmar'. Asarning yoritib berilgan voqeadagi muhit hozirgi jamiyatimizda bo'layotgan voqealarni ham yoritadi. Har safar ona deya dod solsakda onalarimizga ba'zida e'tibor qaratmaymiz. Kimlarningdur gapiga kirib Qariyalar uyiga olib boramiz. O'ylamaymizku bu besh kunlik dunyo azalidan qaytar dunyo yonimizda bizga shirin ko'rinayotgan farzandlarimiz ham bizga shu kunlarni ravo ko'rmasligiga hech kim kafil bera olmaydi. Ota - onalarimiz e'tiborsiz qolmaydi hukumatimiz tomonidan ularga kerakli barcha shart sharoitlar yaratilgan. Ammo shunisi achinarliki ularni sog'inch qiynaydi, bu dunyoga hech kimni bog'lab bergani emas, kuni kelib bu hayotdan ko'z yumganda ko'zi ochiq qolishidan qo'rqadi, bu hayotda bolam deb tarbiya berib o'ziga emas bolasiga ravo ko'rib kuni kelib, yonida ko'zini yumadigan insoni bo'lmasligi tashvishga solib qo'yadi. Nahot shu darajagacha bora olgan xalq bo'ldik? Onalarimiz shunday yaratilgan o'zini emas doim farzandlarining baxt - u iqbolini o'ylaydi. Borliq esa onalarimizni sabr toqatini, metin bardoshlarini sinaydi. Onalarning biz tushunmaydigan dunyosida faqat farzandlari uchun qalqon bo'lish, ularning baxti uchun kurashish va bu yo'lda jar yoqasida tursada qaytmaslik, fidoyilik yotadi. Fasllar almashinuvida bahor fasli onalarning qabri ustidan boshlanadi. Boychechakning qabrlar ustida ochilishi go'yo farzand sog'inchini unuttirish uchun qabrnı farzand bag'ri singari ilitish uchun ochilgandek. Ayol, ona - bu millat qahramonlari demakdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'tkir Hoshimov "Dunyoning ishlari" T.:2005.-208 b.
2. Said Ahmad. Ijod va jasorat. 2000.
3. Ziyouz.com sayti